

SINGARMONIZM HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Qursanbekova Diydorgul,

Navoiy davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida singarmonizm hodisasining ayrim xususiyatlari tahlil qilingan. Unda singarmonizmning fonetik-fonologik mohiyati, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi holati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu hodisaning nutq madaniyati, til o'rgatish jarayoni va dialektologiyadagi o'rni yoritilgan, singarmonizmning o'zbek tilidagi o'rni va ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: singarmonizm, unli uyg'unligi, fonetika, fonologiya, turkiy tillar, o'zbek tili, artikulyatsiya, sheva.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы сингармонизма в узбекском языке. Рассматриваются фонетико-фонологическая сущность данного явления, этапы его исторического развития и современное состояние в узбекском литературном языке. Также освещается роль сингармонизма в культуре речи, процессе обучения языку и диалектологии. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию значения сингармонизма в узбекском языке.

Ключевые слова: сингармонизм, гармония гласных, фонетика, фонология, тюркские языки, узбекский язык, артикуляция, диалект.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of vowel harmony (singarmonism) in the Uzbek language. It examines the phonetic and phonological nature of this phenomenon, its historical development, and its current state in modern Uzbek literary language. The study also highlights the role of singarmonism in speech culture, language teaching, and dialectology. The findings contribute to a deeper understanding of the significance of vowel harmony in Uzbek linguistics.

Keywords: singarmonism, vowel harmony, phonetics, phonology, Turkic languages, Uzbek language, articulation, dialect.

Kirish. Tilshunoslikda fonetik hodisalar til tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shunday hodisalardan biri singarmonizm bo'lib, u turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotida asosiy fonetik qonuniyat sifatida shakllangan. Singarmonizm tovushlarning, ayniqsa unliarning, bir-biriga moslashuvi va uyg'unlashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu hodisa qadimgi turkiy tillarda qat'iy amal qilgan bo'lsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida uning faolligi sezilarli darajada kamaygan.

Mazkur maqolaning ahamiyatli tarafi shundaki, singarmonizm hodisasini o'rganish o'zbek tilining tarixiy fonetikasi, dialektologiyasi va nutq madaniyatini chuqur anglash imkonini beradi. Ushbu mavzuni o'rganishdan maqsad- o'zbek tilida singarmonizmning amaliy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish.

“Singarmonizm – bu fonetik tizimda tovushlarning, ayniqsa unliarning artikulyatsion va akustik jihatdan o'zaro uyg'unlashuvi hisoblanadi. Bu hodisa tilning ichki qonuniy rivojlanish mexanizmlaridan biri bo'lib, nutq jarayonini soddalashtirish va talaffuzni qulaylashtirishga xizmat qiladi”.

Unlilar talaffuzida tilning old yoki orqa qismi, lablarning ishtiroki va og'iz bo'shlig'ining ochilish darajasi muhim rol o'ynaydi. Singarmonizm aynan shu

artikulyatsion xususiyatlarning bir xil yoki yaqin bo'lishini talab qiladi. Masalan: *qalam* so'zida barcha unililar orqa qatorga mansub. *tilim* so'zida esa old qator unililar ustun Bu holat nutq apparatining ortiqcha harakatini kamaytiradi va talaffuzni iqtisodiy qiladi.

Muhokama va natija. Fonologik nuqtayi nazardan singarmonizm fonemalarning kombinator xususiyatini belgilaydi. Ya'ni, ma'lum bir fonema boshqa fonemalar bilan uyg'unlashgan holda keladi. Masalan, qadimgi turkiy tillarda: *-lar / -ler* qo'shimchalari so'zdagi unililarga moslashgan. *evler, atlar* kabi shakllar mavjud bo'lgan. Bu hodisa fonologik tizimning tartibli va tizimli ekanligini ko'rsatadi. Aynan turkiy tillarda unililarning ko'p variantlilik unililardagi singarmonizm hodisasini keltirib chiqargan. Bu hodisa garchan o'zbek tilida ma'lum darajada pasaygan bo'lsa-da boshqa turkiy tillar: qozoq, turk, qirg'iz va shu kabi tillarda aniq sezilib turadi. Bugunda o'zbek dialektologiyasida ham bunga duch kelamiz. Hozirgi o'zbek tilida bu hodisa deyarli yo'qolgan, bu esa fonetik tizimning soddalashganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunos olimlar singarmonizmni turkiy tillarning genetik belgisi sifatida baholaydilar. Masalan: A.N. Kononov: "singarmonizm – fonetik tizimning yadrosi"

Sh. Shoabdurahmonov: "o'zbek tilida bu hodisa tarixiy qoldiq". Bu fikrlar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: singarmonizm yo'qolmagan balki transformatsiyaga uchragan zamonaviy til tizimida passiv holga o'tgan.

Singarmonizmning tarixiy rivojlanishi turkiy tillarning evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq:

1. Qadimgi turkiy davr

Bu davrda singarmonizm mutlaq qonun sifatida amal qilgan. Orxun-Yenisey bitiklarida barcha qo'shimchalar asos so'zga moslashgan: *tegdi, bodun, kagan*. Bu davr tilida fonetik uyg'unlik juda yuqori darajada bo'lgan.

2. O'rta asrlar davri

Bu davr uchun Chig'atoy tilini asos qilib olishimiz mumkin. O'rta davrda singarmonizm qisman saqlangan, lekin allaqachon zaiflashish boshlagan. Buning sabablari: fors-tojik tilining kuchli ta'siri, adabiy tilning normallasuvi, ko'p tillilik muhiti. Buning natijasida aralash unililar ko'paygan.

3. Zamonaviy davr

Ushbu davr hozirgi o'zbek adabiy tili davriga to'g'ri keladi. Bu davrda singarmonizm faqat qoldiq holatida kuzatiladi. Masalan: *universitet, madaniyat, kitoblar*. Bu so'zlarda o'zaro uyg'unlik buzilgan. Adabiy til qoliplashganligi sababli singarmonizm kamroq seziladi. Bu ham og'zaki nutqda xolos.

O'zbek tilida shevalar singarmonizmni saqlab qolgan asosiy manba hisoblanadi: Qipchoq shevalarida unli va undosh uyg'unligi haligacha saqlanib qolgan va o'z kuchini yo'qotmagan. Bunga qipchoq guruhiga mansub tillar misol bo'la oladi. Masalan, *kelgen*,

barğan. Qarluq shevalarida bu hodisa darajasi o‘rtacha. Og‘zakida aniq kuzatiladi. O‘g‘uz shevalarida faolroq. Bu holat til tarixini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Singarmonizmning amaliy ahamiyatiga ham to‘xtalmoqchimiz. Singarmonizm nutq madaniyatida nutqni ohangdor, ravon, tabiiy qiladi. U nutq estetikasi bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, lingvistik tadqiqotlarda tarixiy fonetikani o‘rganishda qiyosiy tilshunoslikda dialektologiyada asosiy ilmiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Singarmonizm o‘zbek tilining tarixiy-fonetik rivojlanishini aks ettiruvchi muhim hodisadir. U hozirgi adabiy tilda faol bo‘lmasa-da, fonetik tizimni tushinishda, shevalarni tahlil qilishda, til tarixini o‘rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega. Kelgusida singarmonizmni eksperimental fonetika, akustik tahlil va zamonaviy lingvistik metodlar asosida o‘rganish dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduazizov A.A. O‘zbek tili fonetikasi va fonologiyasi. – Toshkent, 2010.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 2012. – 41 bet.
3. Baskakov N.A. Tyurkskie yazyki. – Moskva, 1969.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2006.
5. Kononov A.N. Grammatika uzbekskogo yazyka. – Moskva, 1960. – B. 207.
6. Reshetov V.V. Uzbekskiy yazyk. – Moskva, 1959.
7. Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980. 34, 41 b.
8. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 1990.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934